



NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021-YIL YANVAR-APREL


Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: 79-223-33-29

## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-aprel)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 22 475,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 109,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,2 %) ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 5,5 (bar) % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 13,6 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 10,1 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning- 13,1 % ga pasayish kuzatildi.

\**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*


## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 499,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ini tashkil etdi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da**




### Ishlab chiqaradigan sanoat (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18 705,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2 %ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,1 % (5,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 86,2 % (86,8 %) va quiyi texnologiyalisi - 6,5 % (7,1 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 81,5 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 119,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,8 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,0 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 144,8 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning o’sish sur’ati

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,9 ming m<sup>3</sup> azot (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 76,7 % ga o’sgan), 32,9 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (2,0 bar), 180,5 ming tonna suvsiz ammiak (133,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o’sish sur’atlari kuzatildi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	2020- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan o'sish, % da
<b>Portlandsement, ming tonna.</b>	1 076,0	1 225,0	113,8
<b>Azot, ming m<sup>3</sup></b>	2,8	4,9	176,7
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna</b>	23 689,0	21 287,0	89,9
<b>Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna</b>	16,4	32,9	200,1
<b>Kislorod, ming m<sup>3</sup>.</b>	46,3	46,6	100,8
<b>Suvsiz ammiak, ming tonna</b>	135,2	180,5	133,4
<b>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.</b>	124,3	150,5	121,1
<b>Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna</b>	31,4	32,3	102,9

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan azot 176,7 % ga hamda kaustik soda mahsulotining 2,0 bar. ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, yumshoq bug'doy va spelta uni (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan - 89,9 %) pasayishi kuzatildi.


## Metallurgiya sanoati (2021- yil yanvar-aprel)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 81,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 7,2 % ga o'sgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 81,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 7,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 15 244,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-aprel)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 771,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-aprel)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 516,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-aprel)




2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi 158,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 111,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 112,7 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,0 % ni) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 86,9 % ni tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 192,8	3 612,0	-580,8
Issiqqlik energiyasi, ming gkal	1 371,0	1 775,8	404,8


## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 103,3	16 908,2	11 804,9
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9,3	58,1	48,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	7 364,4	15 256,0	7 891,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,3 bar ga va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 6,3 bar ga hamda

boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar - 2,1 bar ga oshganligi kuzatildi.

### **Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 135,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,2 % ni, Karmana tumani 19,1 % ni, Qiziltepa tumani 12,6 % ni, Xatirchi tumani 11,5 % ni hamda Navbahor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (133,6 %) hamda Qiziltepa tumanida (109,9 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mird. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da
	1 135,3		100,0	104,5
<b>Navoiy viloyati.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	353,8	31,2	102,0	
<b>Navoiy sh.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	82,9	7,3	133,6	
<b>Zarafshon sh.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	216,9	19,1	102,9	
<b>Karmana t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	24,5	2,2	84,7	
<b>Konimex t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	142,9	12,6	109,9	
<b>Qiziltepa t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	77,8	6,8	101,9	
<b>Navbahor t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	70,2	6,2	105,7	
<b>Nurota t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	9,8	0,9	100,6	
<b>Tomdi t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	25,6	2,2	101,1	
<b>Uchquduq t.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	130,9	11,5	100,4	
<b>Xatirchi t.</b>				

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 38,7 % ni, Karmana tumani 23,9 % ni, Nurota tumani 8,0 % ni, Xatirchi tumani 7,6 % ni, Qiziltepa tumani 6,8 % ni hamda Navbahor tumani 5,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (140,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mird. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da		
	653,3			100,0			101,3		
<b>Navoiy viloyati.</b>									
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	253,1	38,7	99,8		38,3	5,9	100,8		
<b>Navoiy sh.</b>				<b>Navbahor t.</b>					
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	36,1	5,5	140,0		52,3	8,0	106,6		
<b>Zarafshon sh.</b>				<b>Nurota t.</b>					
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	155,9	23,9	99,7		4,3	0,7	100,8		
<b>Karmana t.</b>				<b>Tomdi t.</b>					
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	11,2	1,7	71,3		7,9	1,2	101,1		
<b>Konimex t.</b>				<b>Uchquduq t.</b>					
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	44,3	6,8	99,0		49,9	7,6	100,2		
<b>Qiziltepa t.</b>				<b>Xatirchi t.</b>					

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to'g'ri kelib Navoiy shahriga 20,9 % ni, Qiziltepa tumani 20,4 % ni, Xatirchi tumani 16,8 % ni, Karmana tumani 12,7 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (129,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mird. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da
	482,0		100,0	109,2
<b>Navoiy viloyati.</b>				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	100,7	20,9	108,2	
<b>Navoiy sh.</b>			<b>Navbahor t.</b>	
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	46,8	9,7	129,1	
<b>Zarafshon sh.</b>			<b>Nurota t.</b>	
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	61,0	12,7	112,0	
<b>Karmana t.</b>			<b>Tomdi t.</b>	
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	13,3	2,8	100,5	
<b>Konimex t.</b>			<b>Uchquduq t.</b>	
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	98,6	20,4	115,7	
<b>Qiziltepa t.</b>			<b>Xatirchi t.</b>	

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidaqi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chigarish**  
**(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidaqi korxonalar tomonidan 1 300,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chigarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidaqi korxonalarning umumiy ishlab chigarishdagi tutgan ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

**Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida**  
**sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**  
**(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>22 475,4</b>	<b>100,0</b>	<b>109,9</b>
<b>Navoiy viloyati.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>19 236,7</b>	<b>85,6</b>	<b>109,5</b>
<b>Navoiy sh.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>102,8</b>	<b>0,5</b>	<b>109,6</b>
<b>Zarafshon sh.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>2 200,3</b>	<b>9,8</b>	<b>103,1</b>
<b>Karmana t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>27,6</b>	<b>0,1</b>	<b>96,4</b>
<b>Konimex t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>186,2</b>	<b>0,8</b>	<b>107,6</b>
<b>Qiziltepa t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>208,9</b>	<b>0,9</b>	<b>115,3</b>
<b>Navbahor t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>83,5</b>	<b>0,4</b>	<b>106,0</b>
<b>Nurota t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>10,5</b>	<b>0,05</b>	<b>104,6</b>
<b>Tomdi t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>50,9</b>	<b>0,2</b>	<b>112,2</b>
<b>Uchquduq t.</b>			
	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	<b>368,0</b>	<b>1,6</b>	<b>109,3</b>
<b>Xatirchi t.</b>			

**Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da**

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko'rsatkichidan yuqori, Navbahor tumaniga (2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 115,3 %) hamda Uchquduq tumaniga (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 112,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.





Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida ( 2020-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 133,6 %), Qiziltepa tumanida ( 109,9 %), Karmana tumanida (102,9 %) hamda Navoiy shahrida (102,0 %) sezilarli darajada oshdi.

## Navoiy viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,6 %) hamda Karmana (9,8 %), Xatirchi (1,6 %), Navbahor ( 0,9 %), Qiziltepa ( 0,8 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Tomdi ( 0,05 %), Konimex (0,1 %), Uchquduq ( 0,2 %), Nurota (0,4 %), tumanlari hamda Zarafshon ( 0,5 %) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## **Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 217,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Konimex (100,0 %), Nurota (97,1 %), Qiziltepa (69,2 %) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (99,2 %) ni tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,5 %), Karmana (14,3 %), Xatirchi (36,3 %), Navbahor (38,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda**  
 (2021- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 281 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 725 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,1 %) Navoiy shahriga, 564 tasi (17,2 %) Karmana tumaniga, 415 tasi (12,6 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**  
 (2021- yil 1- may holatiga ko'ra)



2021- yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 355 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 59 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 16,6 %) Xatirchi tumanida, 53 tasi (14,9 %) Navoiy shahrida, 49 tasi (13,8 %) Karmana tumanida, 43 tasi (12,1 %) Nurota tumanida, 42 tasi (11,8 %) Zarafshon shahrida, 37 tasi (10,4 %) Uchquduq tumanida, 27 tasi (7,6 %) Qiziltepa tumanida, 22 tasi (6,2 %) Navbahor tumanida hamda 15 tasi (4,2 %) Tomdi tumanida tashkil etildi.